

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI**

**TURIZM VA MADANIY MEROS VAZIRLIGI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-fevraldag'i "Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-75-sون [Farmoniga](#) muvofiq:

1. Quyidagilar:

Turizm va madaniy meros vazirligining tashkiliy tuzilmasi [1-ilovaga](#) muvofiq;

Turizm va madaniy meros vazirligi markaziy apparatining boshqaruv xodimlari cheklangan soni 84 nafar bo'lgan tuzilmasi [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. Turizm va madaniy meros vazirligining hududiy bo'linmalari boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 386 nafar etib belgilansin.

3. Bosh vazir o'rinnbosari — turizm va madaniy meros vaziriga:

turizm va madaniy meros vaziri o'rinnbosarlari o'rtasida aniq vazifalar va funksiyalarni taqsimlash;

davlat organlari va boshqa tashkilotlar, yetakchi loyiha institutlari, ilmiy va ta'lif muassasalari, xalqaro tashkilotlar, xorijiy kompaniyalarning yuqori malakali mutaxassislarini, shuningdek, ekspertlarni maslahatchi sifatida jalb qilish;

zarur hollarda, xodimlarning belgilangan umumiylar soni doirasida Turizm va madaniy meros vazirligi markaziy apparati, shuningdek, tizim tashkilotlari tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, Turizm va madaniy meros vazirligining viloyatlar va Toshkent shahar bosh boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) bo'limlari tuzilmalari va nizomlarini tasdiqlash, shuningdek, ular boshqaruv xodimlarining cheklangan sonini belgilash huquqi berilsin.

4. Belgilab qo'yilsinki:

Turizm va sportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (keyingi o'rinnlarda — Jamg'arma) etib qayta nomlanadi;

Turizm va madaniy meros vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalari faoliyati Davlat budgeti mablag'lari, vazirlilikning budgetdan tashqari mablag'lari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi;

Jamg'arma mablag'lari Turizm va madaniy meros vazirligi va uning hududiy bo'linmalari, shuningdek, tizim tashkilotlari xodimlarini qo'shimcha rag'batlantirishga yo'naltiriladi;

Turizm va sport vazirligining mol-mulki, shu jumladan avtotransport vositalarini Turizm va madaniy meros vazirligiga o'tkazishda qayta rasmiylashtirish uchun to'lovlar undirilmaydi;

Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan qayta tashkil etilayotgan, tugatilayotgan, o'zgartirilayotgan va boshqa tashkilotlar tizimiga o'tkazilayotgan tashkilotlarga biriktirilgan ko'chmas mulk obyektlariga va boshqa mol-mulkka bo'lgan huquqlar tegishli yig'imlar va boshqa to'lovlar undirilmagan holda qayta rasmiylashtiriladi;

Turizm va sport vazirligining markaziy apparati xodimlarini Turizm va madaniy meros vazirligiga ishga qabul qilish Bosh vazir o'rinnbosari — turizm va madaniy meros vaziri tomonidan tegishli davlat organlari tomonidan ilgari amalga oshirilgan kelishuvlarni, tanlov natijalarini inobatga olgan holda, mustaqil amalga oshiriladi;

Turizm va madaniy meros vazirligi to'g'risidagi nizom tasdiqlangunga qadar, Turizm va madaniy meros vazirligi hamda hududiy bo'linmalar xodimlarining mehnatiga haq to'lash tartibi va shartlari Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-iyuldag'i 477-sон qarori bilan tasdiqlangan Turizm va sport vazirligi to'g'risidagi [nizomga](#) va amaldagi tartibga asosan amalga oshiriladi.

Turizm va madaniy meros vazirligi bir oy muddatda vazirlik to'g'risidagi nizomni tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kirtsin.

5. Quyidagilar Jamg'arma mablag'larini shakllantirishning qo'shimcha manbalari etib belgilansin:

muassis Turizm va madaniy meros vazirligi hisoblangan korxonalar va tashkilotlar (keyingi o'rnlarda — tizim tashkilotlari) ixtiyorida soliqlar va yig'imlar to'langanidan keyin qoladigan so'f foydaning bir qismi;

xususiy lashtirish to'g'risidagi qarorlarga muvofiq davlat mulki obyektlarini realizatsiya qilishdan tushadigan tegishli mablag'lar;

tizim tashkilotlarining mol-mulkini (bundan ko'chmas mulk mustasno) sotishdan tushgan mablag'larning 50 foizi;

tizim tashkilotlarining mol-mulkini ijara berishdan tushgan budgetga yo'naltirilayotgan mablag'larning 50 foizi;

tizim tashkilotlari faoliyatini tekshirish natijalari bo'yicha Turizm va madaniy meros vazirligining ichki audit xizmatlari tomonidan aniqlangan Davlat budgeti mablag'larining, shuningdek talon-toroj, rastratalar, kamomadlar summalarining 50 foizi;

tizim tashkilotlari faoliyatini tekshirish natijalari bo'yicha Turizm va madaniy meros vazirligining ichki audit xizmatlari tomonidan aniqlangan hamda davlat maqsadli jamg'armalari va budgetdan tashqari jamg'armalar daromadiga undirilgan noqonuniy sarflangan budget mablag'lari, talon-toroj, rastratalar, kamomadlar summalar;

tizim tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalariga tushadigan mablag'larning 10 foizi;

Jamg'armaning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

turizm va madaniy meros sohalaridagi davlat-xususiy sheriklik loyihamini amalga oshirishdan tushadigan mablag'lar;

jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining homiylik xayriyalari;

xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy davlatlarning grantlari va texnik ko'maklashish mablag'lari;

qonunchilik hujjalarda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

6. Turizm va madaniy meros vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda ikki hafta muddatda Davlat budgetining 2022-yil uchun tasdiqlangan budget parametrlariga ushbu qaror talablaridan kelib chiqib tegishli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kirtsin.

7. Turizm va madaniy meros vazirligi hamda Madaniy meros agentligi Toshkent shahri, Amir Temur shoh ko'chasi, 107 b-uy manzili bo'yicha joylashtirilsin.

8. Turizm va madaniy meros vazirligi:

ikki hafta muddatda vazirlikning hududiy, tarkibiy va quyi bo'linmalari to'g'risidagi nizomlar (ustavlar), ularning tuzilmalari, shuningdek, xodimlarning lavozim yo'riqnomalari qayta tasdiqlanishini ta'minlasin;

bir oy muddatda tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonunchilik hujjalari mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2022-yil 18-fevral,  
PQ-135-son